

OG‘ZAKI NUTQNI RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY VA AMALIY ASOSLARI

Saylaubayeva Bibigul Jenisbay qizi

ToshDO‘TAU Ona tili va adabiyoti ta’limi fakulteti 3-kurs talabasi

bibigulsaylaubaeva@gmail.com+998943285057

Annotatsiya: Ushbu maqolada og‘zaki nutqning mazmuni va uning ta’lim jarayonidagi o‘rni, O‘zbekiston va chet el tajribasida og‘zaki nutqni rivojlantirish yondashuvlari hamda 6-sinf ona tili darsligi asosida og‘zaki nutqni shakllantirishga qaratilgan topshiriqlar tahlil qilinadi. Maqola natijalariga ko‘ra, og‘zaki nutqni rivojlantirishda kommunikativ va interaktiv metodlarning ahamiyati ta’kidlanadi.

Kalit so‘zlar: og‘zaki nutq, muloqot, darslik, metodik qo‘llanma, taqqoslash, topshiriq, til o‘rgatish

Til kishilar o‘rtasidagi muloqotni, fikr-almashuv jarayonini, hissiy ta’sir etish va madaniy qadriyatlarni to‘plash vazifasini bajaruvchi murakkab ijtimoiy, fiziologik, psixologik hodisadir.

Til orqali muloqot qilish insoniyat taraqqiyotining eng muhim vositalaridan biridir. Ayniqsa, og‘zaki nutq inson tafakkurining shakllanishi, jamiyatda o‘zini ifoda etish va o‘rin topishda beqiyos ahamiyatga ega. Ta’lim jarayonida og‘zaki nutqni rivojlantirish o‘quvchilar shaxsiyati va tafakkurini shakllantirishda asosiy mezonlardan biridir

Og‘zaki nutq – bu insonning muloqot qilish vositasi bo‘lib, og‘zaki ifoda, intonatsiya, pauza, urg‘u va boshqa paralingvistik vositalar orqali amalga oshadi. Bu ko‘nikma nafaqat o‘z fikrini aniq bayon etish, balki jamiyatda to‘g‘ri muloqot qilish, munosabatlar o‘rnatish, ijtimoiy faollikni kuchaytirishga xizmat qiladi.

Ta’lim jarayonida og‘zaki nutqning muhim tomonlarini yoritishda A.G‘ulomov va B.Qobilovanning “Nutq o‘stirish mashg‘ulotlari: o‘qituvchilar uchun metodik qo‘llanma” kitoblaridagi metodik tavsiyalar, topshiriqlar ilmiy asos bo‘la oladi. Ona tili ta’limida og‘zaki nutq malakasini baholash usullari va pedagogik o‘lchovlariga oid maxsus ilmiy ishlar amalga oshirilmagan bo‘lsa-da, bu borada bir qancha qo‘llanma, darslik hamda ishchi o‘quv dasturlarida muayyan qarashlar o‘z aksini topgan. Jumladan, D.Yo‘ldoshevaning “O‘zbek

tilining o'qitish metodikasi“, Q.Shodiyeva “Nutq o'stirish uslubi“ (darslik), A.D.Najimova “Ona tili darslarida o'quvchilar nutqini o'stirishga xizmat qiluvchi mashqlar tizimi” (darslik), G.Najmiddinova “Bolalar nutqini o'stirish“ (o'quv qo'llanma), Sh.Abdiraimovning “Nutqiy ko'nikmalarni baholash asoslari” faniga doir ishchi o'quv dasturida nutqiy ko'nikmalarni rivojlantirish usullari hamda nutqiy malakalarni baholash mezonlari va texnologiyalari borasida muhim tavsiyalar berilganiga guvoh bo'lamiz.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 1-oktyabr oyida e'lon qilingan “2020-2023-yillarda xalq ta'limini rivojlantirish bo'yicha milliy dasturni tasdiqlash to'g'risida”gi Farmoniga muvofiq “O'quvchiga tilni o'qitish orqali shu til bo'yicha egallanadigan nutqiy faoliyatning asosiy to'rt turi: nutqni tinglab tushunish, gapirish, o'qish va yozish amallari bo'yicha har bir sinfda taqozo etiladigan ko'nikma va malakalar me'yorini rivojlantirish, bunda o'qish hamda mehnat jarayonida, oila va jamoat joylarida yuzaga keladigan turli nutqiy vaziyatlarda mustaqil ravishda fikr almasha olish va fikr bayon etish, eshitilgan materialni idrok etish, shuningdek, yozma manbalarni o'qish orqali axborot olish, voqea-hodisalarga o'z munosabatini bildirish tarzida muloqotga kirish malakasini egallab borish dinamikasi nazarda tutiladi”.¹ Bundan tashqari, ushbu dasturda o'quvchining mantiqiy fikrlashini va amaliy ko'nikmalarini shakllantirishga yo'naltirilgan xalqaro baholash dasturi (PISA, PIRLS) talablariga mos tarzda sinflar kesimida malaka talablarini ishlab chiqish nazarda tutilgan.

Bugungi kunda ko'plab rivojlangan davlatlarning ta'lim tizimida og'zaki nutqni rivojlantirishga alohida urg'u berilmoqda. Masalan, Kanadada o'tkazilgan tadqiqotda, madaniy dasturga asoslangan hikoya qilish texnikasi orqali bolalarning hikoya tuzish va eslab qolish ko'nikmalari yaxshilanganligi aniqlangan. Avstraliyada esa hikoya qilish loyihasi orqali yosh bolalarning savodxonlikka bo'lgan qiziqishi va og'zaki nutq rivojlanishi oshgani ko'rsatilgan.² Buyuk Britaniyada joylashgan English-Speaking Union (ESU) tashkiloti xalqaro miqyosda debat, ommaviy nutq va talabalar almashinuvi dasturlari

¹ O'zbekiston Respublikasi prezidentining 2020-yil 1-oktyabr oyidagi “2020-2023-yillarda xalq ta'limini rivojlantirish bo'yicha milliy dasturni tasdiqlash to'g'risida” PF-134-son <https://lex.uz/docs/-6008663>.

² Sue Ollerhead. (2024). Multilingual storytelling in Australian classrooms: <https://journals.sagepub.com/doi/full/10.1177/14687984241303390>.

tashkil etilganligi va Singapurda ham maktab o'quvchilari uchun majburiy bo'lgan qo'shimcha o'quv faoliyatlari bo'yicha debat klublari mavjud bo'lib, ular o'quvchilarning og'zaki nutq ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Finlandiyaning maktabgacha ta'lim muassasalarida o'qituvchilarga og'zaki nutqni qo'llab quvvatlash strategiyalari o'rgatilgan bo'lib, bu bolalarning til rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatgan.³ AQSH va Kanadada o'tkazilgan adabiyot tahlilida, loyihaviy o'qitish usuli o'quvchilarning og'zaki nutqini rivojlantirishda samarali foyda keltirgan.

O'zbekistonda esa darslik va metodik qo'llanmalarda og'zaki nutqqa oid topshiriqlar mavjud bo'lsa-da, ular ko'p hollarda matn asosida savol-javob yoki hikoya qilish bilan cheklanadi. Interaktiv muloqot, jamoaviy ishlash, munozara kabi metodlardan foydalanish hali keng rivojlanmagan.

6-sinf ona tili darsligida gapirish ko'nikmasini rivojlantirishga mashqlarning ayrimlarini ko'rib chiqamiz:

“Til muloqot vositasi” nomli nutqiy mavzusidagi topshiriq:Quyidagi rasmlarga qarang. Savollarga javob bering.(Rasmda ishxonadagi hamkasblar suhbat, dars qilayotgan bola, o'qituvchi va o'quvchi va oxirgisida shifokor va bemor qizaloq tasvirlangan)

1.Rasmlarni o'zaro bog'lab turgan jihat nimada deb o'ylaysiz? 2.Ayting-chi, til qanday vazifalarni bajaradi? 3.Muloqot deganda nimani tushunasiz?

4. Fikrimizni tinglovchiga qanday shakllarda yetkazamiz? 5. Yozma nutning og'zaki nutqdan qanday farqi bor? 6. So'zlashuv tili bilan adabiy tilning farqi nimada?

Yuqoridagi savollar orqali o'quvchining muloqot ko'nikmasi bilan bir qatorda, uning dunyoqarashi, muayyan soha bo'yicha hayotiy tajribalari, berilgan vaziyatga qay darajada tanqidiy va mantiqiy yondasha olish va rasm asosida fikrlash qobiliyati baholanadi.

O'quvchilarda tanqidiy va ijodiy fikrlashi uchun quyidagi ikkita topshiriq berilgan. 1-topshiriq sharti quyidagicha:

Ayting-chi, yozuvchi bilan uning asarini o'qiyotgan kitobxon o'rtasida muloqot bo'lishi mumkinmi?Javobingizni izohlang.

³ Voltmer K, Hormann O, Pietsch M, Maehler C, von Salisch M.(2021). Teaching the Teachers About Language Support Strategies: Effects on Young Children's Language Development

Savollar tagida ikkita rasm berilgan: X. To'xtaboyevning "Sariq devni minib" va G'.G'ulomning "Shum bola" asarlari.

2-topshiriq sharti quyidagicha: Ayting-chi, moddiy va ma'naviy hayot deganda nimani tushunasiz? Savollardan so'ng kitob o'qiyotgan bola, non, milliy matolar, tarixiy binolar va eski mimiyaturalarga oid oltita rasm tasvirlangan.

Bundan tashqari erkin fikrlash va o'z fikrini ommaga yetkazish ko'nikmalarini rivojlantirishga oid quyidagi topshiriq berilgan. Topshiriqda ikkita savol keltirilgan:

1.Televideniye, radio va ko'cha-ko'yda ona tilimizga nisbatan qanday holatlar sizni tashvishlantiradi? Nima uchun?

2.Bugungi kundagi ona tilimiz bilan bog'liq qaysi ijobiy va salbiy jihatlar haqida kelajak avlodga xabar yetkazishni istar edingiz?

O'quvchilarning og'zaki nutqini rivojlantirishda bahs-munozara usuli ham alohida ahamiyatli. Shu usulga doir darslikda quyidagi topshiriq berilgan. Topshiriq shart: Berilgan rasmlar asosida tilga bo'lgan munosabatni muhokama qiling. Rasmlarda milliy kiyimdagi baxshining dutor chalayotgani, bolalarning kutubxonadagi holat va turli xil reklama banerlaridagi imloviy xatolar tasvirlangan.

Tinglab tushunish orqali o'g'zaki nutqini rivojlantirishga oid quyidagi topshiriq berilgan: Sinfdoshlaringiz yozgan maktublarni tinglang. Ularga munosabat bildiring.⁴

Bu topshiriq orqali o'quvchilarda tinglab tushunish bilan birga gapirish ko'nikmasi ham rivojlanadi va tanqidiy fikrlay boshlaydi.

Bundan tashqari 6- sinf ona tili darsligiga og'zaki nutqni rivojlantirish uchun yapon maktablarida qo'llaniladigan "Navbat bilan hikoya qilish" metodi bunda har bir o'quvchi bitta gap aytadi, keyingisi esa davom etadi.Bu metoddan maqsad o'quvchilarda xayoliy voqeani og'zaki ravishda davom ettirish, ijodiy va erkin fikrlashni rivojlantirishdir. Shuningdek, "Fikr bildir va himoya qil" metodida har bir o'quvchi berilgan savolga javob tariqasida o'z fikrini aytadi va boshqalar esa unga qarshi fikrlar aytib, yana savollar beradi. Bu metoddan maqsad fikrni dalil bilan himoya qilish, mulohaza qilish va madaniyatli bahs yuritishdir. Germaniyadagi maktablarda "Qanday bo'lar edi agar....." metodida

⁴ Mavlonova K. va b. Ona tili. 6-sinf uchun darslik. – Toshkent: Respublika ta'lim markazi, 2022. – B.12.

o'quvchilarga savollar beriladi, ular javobini og'zaki bayon qiladi. Bu metoddan maqsad ijodiy fikrlash va tasavvur qilish orqali nutqni rivojlantirish bo'ladi. Savollar quyidagicha:

Agar qush bo'lganingizda, qayerga uchar edingiz?

Agar biror ertakka sayohat qilish imkoniyati bo'lganida, qaysi ertak qahramoni bilan uchrashishni xohlar edingiz?

Xulosa qilib aytganda, og'zaki nutq nafaqat o'quv jarayonida, balki kundalik muloqot va ijtimoiy hayotda ham muhim kommunikativ kompetensiya sifatida e'tirof etiladi. Shu boisdan, boshlang'ich bosqichdanoq o'quvchilarda mazkur ko'nikmani shakllantirish dolzarb masalalardan biridir. Tadqiqot davomida 6-sinf o'quvchilarining yosh xususiyatlari, qiziqishlari va ehtiyojlaridan kelib chiqib, og'zaki nutqni rivojlantirishda qiziqarli, rang-barang va interaktiv usullardan foydalanish zarurligi asoslab berildi. Ayniqsa, xorijiy adabiyotlarda keltirilgan ilg'or metodlardan tanlab olingan ayrim samarali yondashuvlar amaliyotga tadbiq etilishi mumkinligi ko'rsatildi. Mazkur metodik tavsiyalar umumta'lim maktablarining darslik va amaliy mashg'ulotlariga integratsiya qilinsa, o'quvchilarda og'zaki nutq ko'nikmasining rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi, degan xulosaga kelindi.

Foydalangan Adabiyotlar

1.O'zbekiston Respublikasi prezidentining 2020-yil 1-oktyabr oyidagi "2020 2023-yillarda xalq ta'limini rivojlantirish bo'yicha milliy dasturni tasdiqlash to'g'risida" PF-135-son <https://lex.uz/doc/-6008663>.

2.Mavlonova K. va b. Ona tili. 6-sinf uchun darslik. – Toshkent: Respublika ta'lim markazi, 2022. 224-b.

3.Meadow Schroeder, Erin Tourigny, Stan Bird, Jackie Ottmann, Joan Jeary, Duane Mark, Clarice Kootenay, Susan A. Graham, Anne McKeough. (2022). Canadian Aboriginal Storytelling and Literacy Development: <https://ajie.atsis.uq.edu.au/ajie/article/view/50>.

4. Sue Ollerhead. (2024). Multilingual storytelling in Australian classrooms: <https://journals.sagepub.com/doi/full/10.1177/14687984241303390>

5.English-Speaking Union (UK): https://en.wikipedia.org/wiki/English-Speaking_Union.

6. Voltmer K, Hormann O, Pietsch M, Maehler C, von Salisch M.(2021). Finnish preschool teachers' strategies for supporting children's oral language skills: <https://pubmed.ncbi.nlm.nih.gov/34017290/>

7.Abu Bakar. (2019). The Effects of Project-Based Learning on Oral Communication:<https://www.ccsenet.org/journal/index.php/elt/article/view/0/38833>